

“MARTIN IDEN” ASARIDA UMIDSIZLIK MOTIVI

Mamarajabova Dinora Abdusattor qizi

ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Jek Londonning “Martin Iden” romani bosh qahramoni Martin Idenning ijtimoiy sinfiy zinapoyadan ko‘tarilish jarayonida o‘zligini yo‘qotishi va chuqur umidsizlikni boshdan kechirishini yoritadi. Asarda bosh qahramonning muvaffaqiyatga erishgandan so‘ng ham ichki bo‘shliqni his qilishi, ma‘naviy yolg‘izlikka duch kelishi va hayotga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotishi tasvirlanadi. Maqolada Amerika orzusining tanqidi, Fridrix Nitsshe falsafasi, individualizmning fojiali oqibatlari hamda umidsizlik motivining rivojlanish bosqichlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, asarning zamonaviy hayotdagi dolzarbligi va insonlar hayotidagi ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Umidsizlik, ijtimoiy sinf, ma‘naviy bo‘shliq, individualizm, Amerika orzusi, muvaffaqiyat

Аннотация: В данной статье рассматривается, как главный герой романа Джека Лондона «Мартин Иден» теряет своё чувство «я» и испытывает глубокое отчаяние в процессе социального подъёма. В романе показано, как Мартин, даже достигнув успеха, ощущает внутреннюю пустоту, сталкивается с духовным одиночеством и теряет интерес к жизни. Статья содержит подробный анализ критики «Американской мечты», философии Фридриха Ницше, трагических последствий индивидуализма, а также этапов развития мотива отчаяния. Кроме того, рассматривается актуальность произведения в современном мире и его значение для человеческого опыта.

Ключевые слова: Мартин Иден, отчаяние, индивидуализм, капиталистическое общество, постдостижение, экзистенциализм, Американская мечта

Abstract: *This article explores how the protagonist of Jack London's Martin Eden loses his sense of self and experiences profound despair during his social ascent. The novel depicts how Martin, even after achieving success, feels an inner emptiness, encounters spiritual loneliness, and loses interest in life. The article provides a detailed analysis of the critique of the American Dream, Friedrich Nietzsche's philosophy, the tragic consequences of individualism, and the stages of the development of the motif of despair. Additionally, the study examines the novel's relevance in contemporary life and its significance for human experience.*

Keywords: *Martin Eden, despair, individualism, capitalist society, post-achievement depression, existentialism, American Dream*

Jahon adabiyotining eng fojiali va nufuzli asarlaridan biri – Jek Londonning 1909-yilda chop etilgan “Martin Iden” romani hisoblanadi. Asar muallifning shaxsiy hayoti va izlanishlari bilan bir qatorda, ijtimoiy sinfiy tafovut hamda individualizmning eng og‘riqli jihatlarini ochib beradi. Roman bosh qahramoni Martin Idenning hayoti, ya’ni oddiy matros yigitlikdan keng jamoatchilik tomonidan tan olingan mashhur yozuvchilikgacha bo‘lgan yo‘li, asosan umid, kurash va oxir-oqibatda fojiali umidsizliklar bilan to‘la.

Asarda oddiy ishchi sinf va oliy tabaqaga mansub burjua vakillarining real kesishmasi, ularning farqli tomonlari markaziy o‘rinni egallaydi. O‘z sevgisi orqali maqsadiga — burjua tabaqasiga kirishga erishmoqchi bo‘lgan Martin Iden, roman davomida umidsizlikning bir qancha bosqichlarini boshdan kechiradi. Oxir-oqibat, muvaffaqiyat unga yaqin bo‘lsa-da, Martin hayotga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotadi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, roman markazida “umidsizlik” motivi turadi. Bu motiv qahramonning butun hayot yo‘lini belgilovchi asosiy omildir [3, 303].

Umidsizlik Martinda birdan paydo bo‘lgan tuyg‘u emas; u vaqt davomida asta-sekin shakllanadi. Sevgi va ijtimoiy qabulning rad etilishi esa bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Roman bosh qahramoni hayoti davomida “Amerika orzusi” ga ishonib

yashaydi. Biroq, bu orzu eng yuqori cho‘qqiga yetganda, Martinda ichki chirish jarayoni boshlanadi.

Asarning g‘oyaviy mazmuni to‘xtalsak Martin Iden – o‘qimagan, ammo o‘ta irodali va talabchan dengizchi yigit. U yuqori tabaqaga mansub Ruf ismli qizga oshiq bo‘ladi. Rufga erishishning yagona yo‘li deb yuqori sinf vakillari qatoriga kirishni hisoblaydi va o‘zini tubdan o‘zgartirishga qaror qiladi: o‘qishni, yozishni o‘rganadi, ilm-fan, falsafa va adabiyot bilan chuqur shug‘ullanadi.

Ilk qadamlarini turli adabiyotlarni o‘qishdan boshlaydi, keyinchalik maqolalar, kichik qissa va hikoyalar yozadi, so‘ng romanlar yaratadi. Ularni nashr ettirish uchun takror-takror nashriyotlarga yuboradi. Har safar rad etilishiga qaramay, umidini uzmaydi. Martin maqsadiga erishguncha ochlik, qashshoqlik, rad etilish va ijtimoiy kamsitilish kabi og‘riqli holatlarni boshdan kechiradi.

U burjua qabulini qo‘lga kiritishni barcha muammolariga yechim deb o‘ylardi: “Agar men muvaffaqiyat qozonsam, hayotim ma’noga to‘ladi,” deb ishonardi. Afsuski, jamiyat u o‘ylagandek chiqmaydi. Insonlar Martinni o‘qimishlilarча tanqidiy baholamaydi; balki uning tashqi holati — obro‘, pul va shuhratiga qarab unga munosabat bildiradi. Mashhurlik unga ichki bo‘shliq, umidsizlik va bir qancha javobsiz savollarni keltirib chiqaradi. Qahramonning ichki dunyosi asta-sekin umidsizlikning eng chuqur domiga tortadi:

“Men o‘zim shaxs sifatida hech kim meni xohlamagan paytdagi qiymatimdan mutlaqo farq qilmayman... Meni o‘ylantirayotgan narsa shuki, nega ular endi meni izlashmoqda? Albatta, ular meni shaxsim uchun istashmaydi... Ular menga boshqa narsalar — men qo‘lga kiritgan shuhrat va ishlab topgan pulim uchun kerak bo‘lishi aniq.”

Haqiqatda Martin avvalgi qashshoq holatidan umuman farq qilmagan, na fikrlashi, na ichki dunyosi. Shunchaki, “o‘qimishlilar” jamiyati endi unga qarsak chalayotgan va shu bois u hammaning nazarida eng yaxshi yozuvchiga aylangan edi.

Ruf – Martin uchun ideal qiz: o‘qimishli, madaniyatli va yuqori sinf vakili. Ruf Martin uchun muhabbat emas, ma’naviy motivatsiya manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning dunyoqarashlari esa tamomila ikki xil edi: Martin individualizm, o‘zini yaratish va o‘zini anglash yo‘lida harakat qilardi, Ruf esa konformizm, ijtimoiy me’yor va jamiyatga moslashishga intilardi. Ruf Martinni tark etgach, uning ichida umidsizlikning ilk va kuchli uchqunlari paydo bo‘ladi. U katta yozuvchi bo‘lganida Ruf uni qayta sevishni, barcha narsani boshidan boshlashni xohlardi. Lekin “Nimaga endi?” degan savol tug‘iladi. Chunki Rufni Martinga qaytaradigan sevgi emas, balki jamiyat fikri edi. Hamma Martinning asarlarini olqishlagani uchun Ruf ham uni yozuvchi sifatida tan oladi. Bu, an’anaviy me’yorlardan chiqolmaslikning yorqin dalilidir. Shu tariqa, yozuvchilikka erishish yo‘lida Martin hayotining ma’nosini yo‘qotadi. Psixologik tahlillarda Martinning holati “*depressiv ekzistensializm*” ning namunasidir: u o‘z-o‘zini anglash va jamiyatdan ajralish o‘rtasida qoladi. Tadqiqotchilarga ko‘ra, bu holat “muvaffaqiyatdan keyingi depressiya” (post-achievement depression) bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy dunyoda ham keng tarqalgan.

Martin Idenning izlanishlarida Fridrix Nitsshe falsafasi muhim o‘rin tutadi. U kitoblarni o‘qib, “superodam” g‘oyasiga qiziqadi — bu ruhiy, axloqiy va ijodiy jihatdan o‘z chegaralarini kengaytirgan, o‘z qadriyatlarini yaratadigan shaxs. Martin o‘zini jamiyatdan yuqori, mustaqil va kuchli shaxs sifatida ko‘radi. Shu bilan birga, past tabaqadagi odamlar orasida o‘zini noqulay his qiladi, yuqoridagi tabaqadagilar esa uni “qo‘pol dengizchi” deb kamsitadi. Endi u ikki sinfga ham taalluqli emas edi: na o‘z sinfiga qaytolardi, na yuqori sinfga qo‘shilishni xohlardi.

Irving Stounning fikricha, roman — “*o‘zini o‘zi yaratgan odamning ruhiy qulash tragik portreti*” dir. Uning nazarida Martin Idenning fojiasi jamiyat uni rad etishida emas, balki o‘z orzusiga erishgach ham hayotda ma’no topa olmasligidadir [2, 338]. Shuningdek, Stoun Londoning romanda kapitalistik jamiyatning iste’dod va mehnatga munosabatini keskin tanqid qilganini qayd etadi. Bu, Amerika orzusining tanqidiga yaqqol misoldir: “*Mehnat – yuksalish – yutuq*”. Martin bu formulasiga

ishonadi va kambag'al dengizchidan mashhur yozuvchiga aylanishni xohlaydi, ammo real hayotda u ishlamasligini tushunadi. London bu orqali kapitalistik jamiyatdagi sinfiy adovat va muvaffaqiyatning yolg'on va'dalarini fosh qiladi.

Martin hayoti davomida umidsizlikning bir qancha bosqichlarini boshdan kechiradi:

Sotsiopsixologik bosqich – jamiyat tomonidan kamsitilish

Affektiv tanazzul – sevgining rad etilishi

Professional depressiya bosqichi – ijodiy mehnatning qadrsizlanishi (bu bosqichda qahramon post-achievement depressionga duch keladi)

Ekzistensial bo'shliq – jamiyatga moslashib ham o'zligini yo'qotish

Post-success nihilism – muvaffaqiyat kelganidan keyin hayotda ma'no topolmaslik

Sotsiopsixologik realizm – odamlarning ikkiyuzlamachiligini anglash

Ekzistensial nihilism – hayot mazmunining yo'qolishi

Terminal depressiya va yashash istagining yo'qolishi – yakuniy ruhiy yemirilish

Asarning oxirida Martin Iden o'z joniga qasd qiladi: u okeanga sho'ng'ib, o'limni tanlaydi. Romanda bu jarayon mohirona tasvirlangan:

“Paraxodning bir silkinishi unga yordam berdi, u illyuminatordan chiqib, qo'lida osilib qoldi. So'ng oyog'i suvga tegishi bilan qo'llarini qo'yib yubordi...”

Martin jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydi va shunday deydi:

“Hayot – bu tuzoq. Men undan chiqaman”.

Jek London bu sahna orqali o'limni erkinlik sifatida tasvirlaydi. Martin uchun o'lim qutqaruvchidir: u hayotning og'irligi, yolg'izligi va bo'shlig'idan qochadi. Bu motiv romantizm va naturalizm unsurlarini o'zida mujassam etadi [3, 955]. Ilmiy tahlillarda bu holat *“ekzistensial qo'zg'olon”* sifatida talqin qilinadi. London o'z hayotida ham shunga o'xshash inqirozlarga duch kelgan va 1916-yilda, 40 yoshida, sirli sharoitda vafot etgan — bu haqda ko'plab taxminlar mavjud.

Jek Londonning “Martin Iden” asari psixologik va ijtimoiy jihatdan muhim asar bo‘lib, inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlarini keng tahlil qiladi. Asar orqali bir shaxs timsolida umidsizlik insonni qanchalik chuqur inqirozga olib kelishi ko‘rsatiladi. Bosh qahramonda umidsizlikning ilk miltillagan uchqunlari uning asarlari rad etila boshlagach paydo bo‘ladi. “Toma-toma ko‘l bo‘lur” degan maqolga o‘xshab, bu umidsizlik bosqichma-bosqich Martin qalbida ko‘rinmas tarzda rivojlanadi. Oxir-oqibat, shuhratga erishganidan keyin haqiqatlarning fosh bo‘lishi yashirin umidsizlikni yuzaga chiqaradi. Bu esa hayotga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotgan va o‘zligini topa olmagan Martinni o‘z joniga qasd qilishga yetaklaydi. Martin uchun o‘lim hayotdagi ichki bo‘shliqdan qochish vositasidir.

London umidsizlik motivi orqali boylik yoki shuhrat ortidan quvish insonni qanday tanazzulga yuz tutishini namoyish qiladi. Hozirgi kunda ham asar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki zamonaviy jamiyatda ko‘plab insonlar obro‘ va mol-mulk ortidan quvib, o‘zligini yo‘qotish xavfi bilan yuzlashmoqda. Shu sababdan muallif o‘quvchini ogohlantiradiki, mehnat va maqsadlar ortidan intilish muhim, bu hayotga ma’no va mazmun bag‘ishlaydi, ammo bu yo‘lda qalbni yo‘qotmaslik va ruhiy barqarorlikni saqlash juda muhim. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, haqiqiy baxt tashqi yutuqlarda emas, balki ichki xotirjamlik, ma’naviy poklik va insonning o‘zini anglashida mujassam bo‘ladi.

Reference

1. Auerbach J. *Male Call: Becoming Jack London*. Durham: Duke University Press, 1996. 303 s.
2. Stone I. *Sailor on Horseback: The Biography of Jack London*. New York: Doubleday, Doran & Company, 1938. 338 s.
3. G.Mamarasulova "INGLIZ ROMANTIZM ADABIYOTIDA SHARQQA YAQINLASHUV HODISASI." O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari (2024): 955-958.
4. Amirqulov D. The TAQLID SO 'ZLARNING O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O 'RNI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 01.
5. Асадов М. (2023). “Ёлғизлик мотиви”нинг поэтик талқини. SHARQ-U G'ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1).
6. Qahharova S. TEZAURUSNING SEMANTIK TAHLILLARDAGI O 'RNI //Oriental Conferences. – ООО «SupportScience», 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 446-452.